

**MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA AHLOQIY  
JIHATLARNI RIVOJLANТИRISHNING PSIXOLOGIK  
JARAYONLARI**

Adilova Madina Shamsidinovna

O'zbekiston Milliy universitetining Jizzax filiali  
madina.adilova87@gmail.com

Xursanova Pokiza Sadreddin qizi  
O'zbekiston Milliy universitetining Jizzax filiali talabasi

**Annotatsiya:**

Maqolada maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarda ahloqiy xatti –harakatlar shakllanishining psixologik xususiyatlari muammosini ilmiy nazariy metodik, ijtimoiy-siyosiy manbalar asosida o'rganish, amaliyotdagi mavjud holatni tahlil qilish. Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarda ahloqiy xatti –harakat tushunchasining bolalardagi psixologik va ijtimoiy ahloqiy xususiyatlariga o'zaro aloqadorlikni aniqlash va asoslash haqida bayon etilgan.

**Kalit so'zlar:** ahloqiy ong, ahloqiy tasavvur va bilimlar, madaniy xulq-atvor va ijobiy munosabatlarni shakillantirish, ahloqiy xis-tuyg`ular va munosabatlarni rag`batlantirish, xulq-atvor normalari va qoidalari.

Yosh avlodga ta'lif-tarbiya berish, ularda fan asoslariga nisbatan bilim, ko'nikma, malakalarni shakillantirish davlat siyosatining ustuvor vazifalaridan hisoblanadi.

Maktabgacha ta'lif tizimini yanada takomillashtirish, bolalarning sifatli maktabgacha ta'lifdan teng foydalanishini ta'minlash, maktabgacha ta'lif xizmatlarining nodavlat sektorini rivojlanirish maqsadida, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2018 yil 30 sentyabrdagi "Maktabgacha ta'lif tizimini boshqarishni takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3955-son qaroriga muvofiq:

- O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lif tizimini 2030 yilgacha rivojlanirish konsepsiyasiga muvofiq holda maktabgacha ta'lif sohasidagi normativ-huquqiy bazani yanada takomillashtirish;
- maktabgacha yoshidagi bolalarning har tomonlama intellektual, ahloqiy, estetikva jismoniy rivojlanishi uchun shart-sharoitlar yaratish;
- bolalarning sifatli maktabgacha ta'lif bilan qamrovini oshirish, undan teng foydalanish imkoniyatlarini ta'minlash, mazkur sohada davlat-xususiy

sherikligini rivojlantirish;

- maktabgacha ta'lim tizimiga innovatsiyalarni, ilg'or pedagogik va axborot- kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish;
- maktabgacha ta'limni boshqarish tizimini takomillashtirish, maktabgacha ta'lim muassasalari faoliyatini moliyalashtirish shaffofligi va samaradorligini ta'minlash;
- maktabgacha ta'lim tizimiga maktabgacha ta'lim tizimi xodimlarini tayyorlash, qayta tayyorlash, malakasini oshirish, tanlab olish va rivojlantirishga mutlaqo yangi yondashuvlarni joriy etish;
- maktabgacha ta'lim muassasalarida bolalarning sog'lom va balanslashtirilgan ovqatlanishini, sifatli tibbiy parvarishini ta'minlash[1], maqsadida bugungi kunda ta'lim tizimining eng yuqori bo'g'ini bo'lgan maktabgacha ta'lim tizimida yosh avlodni tarbiyalash masalasi ko'ndalang turadi. Ularning tarbiyasidagi aynan ahloqiy xatti-harakatlarini psixologik jihatdan shakillantirish bugunning dolzarb masalasiga aylanib bormoqda.

Demak ahloq haqida gap ketganda biz aynan bolaning 3 yoshdan 7 yoshgacha bo'lgan maktabgacha yoshi bolalik davrining katta bir qismini tashkil etadi. Asosan mana shu davrdan boshlab bolaning mustaqil faoliyatları rivojlanadi hamda shaxsiy individual xususiyatlari (shaxsiy fazilatlari) tarkib topa boshlaydi.

Bolada ahloqiy tarbiya jarayonida ahloqiy xususiyatlar kamolga etadi. Ahloqiy xususiyatlarning rivojlanishi jarayonida eng avvalo ular o`zlarining boshqalar bilan bo`ladigan munosabatlarini ongli tushuna boshlaydilar, tengdoshlari va kattalar bilan bo`ladigan munosabatlarida ahloq saboqlari rivojana boradi. Psixologik tadqiqotlar natijalarining ko`rsatishicha, maktabgacha tarbiya yoshidagi davr bolaning ma'naviy- ahloqiy, jismoniy shakillanishida eng muxim davr hisoblanadi. Aynan shu davrdan boshlab ma'lum maqsadga qaratilgan ta'lim-tarbiya ta'sirida shaxsning ahloqiy sifatlari shakillana boshlaydi.

Bundan tashqari bolaning maktabgacha yoshidagi davri shu qadar mazmundor va faol davrdirki bu davirda bolaning psixologik rivojlanishida eng katta bosqich hisoblanadi va farzandining yetuk shaxs bo'lib erishishi uchun ota onaning ro'li juda katta. Bu davr bolaning kelgusi o'sishida albatta o'z aksini qoldiradi. Shuning uchun maktabgacha yoshidagi davr ta'sir o'tkazish kuchi jihatidan g'oyat mas'uliyatlidir.

Bola bog'cha yoshiga yetgach, uning psixik taraqqiyotida jiddiy o'zgarishlar yuzaga keladi. Chunki, xuddi ana shu davrdan boshlab bolaning mustaqil

faoliyati anchagina kengayib boradi. Maktabgacha yoshidagi bola mustaqil faoliyatda bo‘la olishi uchun zarur bo‘lgan ikkita qudratli kuchga ega. Birinchidan ma’lum darajada o‘ziga bo‘ysundirilgan harakat apparatiga, ikkinchidan esa, atrofidagi katta odamlar va o‘z tengdoshlari bilan bir qadar erkin munosabatda bo‘la oladigan nutqqa ega.

Mana shuning uchun bu yoshdagi bolalarning xulq-atvorlari, ahloqiy sifatlari, xatti-harakatlari, qiziqish va ehtiyojlari ilk yoshdagi bolalarnikidan keskin farq qiladi. Bu esa o‘z navbatida, ilk yoshdagi bolalar bilan maktabgacha yoshdagi bolalar ta’lim-tarbiyasiga ham turlicha munosabatda bo‘lishni taqozo qiladi.

Maktabgacha yoshdagi davrda muhit bilan bo‘lgan munosabatlarida anchagina o‘zgarishlarni yuzaga keltiradi. Bir tomondan, bola kattalarning doimiy yordamlaridan ancha ozod bo‘lib, ulardan bir qadar uzoqlashadi, ikkinchi tomondan, kattalar bilan bo‘lgan munosabatlari murakkab, ko‘p tomonlama xarakter kasb eta boshlaydi.

Rus fiziologlari N.I. Krasnogorskiy va A.G. Ivanov-Smolenskiylar tomonidan ko‘plab o‘tkazilgan tajribalarning ko‘rsatishicha, maktabgacha yoshidagi bolalarning nerv sistemalari o‘z faoliyati jihatidan hali qat’iy bir izga tushmagan, o‘zgarib turadigan bo‘ladi. Markaziy nerv sistemasi faoliyatining o‘zgaruvchanligi xususan ilkyoshda ravshan ko‘rinadi. Masalan, bu yoshdagi bolalarda qo‘zg‘alish jarayoni tormozlanish jarayoningdan ko‘pincha ustunlik qiladi. Mana shuning uchun ham bu yoshda bolalar juda serharakat va o‘ta hayajonlanuvchan bo‘ladilar.

Bog‘cha yoshidagi bolalarning aynan shu davrida bog‘cha muhiti juda katta rol o‘ynaydi. Bog‘chadagi tartib, intizom va turli-tuman ta’limiy mashg‘ulotlar bolalarda yuksak ijtimoiy, motivatsion, intellektual, ahloqiy va gigiyenik ehtiyojlarning garmonik ravishda yuzaga kelishi uchun sharoit tug‘diradi. Psixologiya nuqtayi nazaridan qaraganda, odatlar o‘z mohiyati jihatidan ehtiyojga yaqin narsalardir. Boshqacha qilib aytganda, turlicha odatlar kundalik holatda takrorlana borishi natijasida vujudimizga juda singib ketib, ehtiyojga aylanib qoladi. Shuning uchun bolalarda ijobiy va foydali ehtiyojlarni shakllantirish deganda, ularda ijobiy foydali odatlarni hosil qilinishini tushunamiz. maktabgacha yoshidagi davrda hosil qilingan mustahkam ijobiy odatlar va ahloqiy sifatlari kishining butun umri davomida saqlanib qoladi.

6-7 yoshga borganda esa ijobiy xulq normalarining ancha barqaror shaqli yuzaga kela boshlaydi, bola tevarak-atrofdagilar bilan bo`ladigan munosabatda ana shu egallabolgan ahloq qoida va normalari nuqtai nazaridan ish tutadigan bo`lib

qoladi, shuning uchun bolalarga ilk yoshidan boshlab ahloqiy xususiyatlarini shakillantirib borish muxim axamiyat kasb etadi.

Bundan tashqari maktabgacha yoshdagi bolada o‘yin faoliyati bolalar psixik taraqqiyotidagi g‘oyat katta ahamiyatga ega. Maktabgacha yoshdagi bola astasekin kattalarning kattalarning hayoti faoliyati dunyosiga kirib boradi,yani bola bunda kattalrni harakatlarini o’z o‘yinlarida aks ettiradi.Bohchaga birinchi kelgan bolalarda o‘yinlarida ko’proq uyidagi holatlarni kuzatish mumkun yani ular o’z o‘yinlarida namoyon qiladi.

Maktabgacha tarbiya yoshida asosan mazmunli va rollarga bo‘linib o‘ynaladigan o‘yinlarni o‘ynaydilar. Ular o‘zlarining turli o‘yinlarida kattalarning oilaviy hayot sharoitlariga doir hodisalarni, mehnat faoliyatlarini, bayramlarni, muhim sanalar kabi hodisalarni qayta tiklaydilar. Ko‘pincha bolalar aks ettirayotgan tashqi muhit hodisalari ular o‘yin faoliyatining mazmunini tashkil etadi. Bolalar aks ettirayotgan muhit qanchalik keng va xilma-xil bo‘lsa, bolalar o‘yinining mazmuni ham shunchalikkeng va xilma-xil bo‘ladi. Natija bolalarda ahloqiy xatti-harakatlar shakllanib boradi.

L.S.Vigotskiyning psixologiyaga kiritgan “psixik taraqqiyotning eng yaqin zonasi” tushunchasi muxim ahamiyat kasb etadi [3]. Buning asl mohiyati, bolaning mustaqil faoliyat kattalar bilan hamkorlikda, uning rahbarligida amalga oshiriladi. Bola shaxsining tarkib topishida oilaning ham axamiyat muxim omillardan hisoblanadi. Chunki kattalarning ahloqiy ibrati aloxida axamiyatga molikdir. Lekin yuksak fazilatlarni, insoniy xislatlarni shakllantirishda shuning o‘ziga yetarli emas. Chunki bola o‘zicha faol xarakat qilmasa, hamkorlikdagi faoliyatda ishtirok etmasa, bolada xech qachon xulq-atvor ko’nikmalari hosil bo‘lmaydi.

Ahloq kishilarning xulq-atvor normalari va qoidalarini, ularning o`z-o`ziga, boshqa kishilarga, mehnatga, jamiyatga munosabati kabi ahloqiy tushunchalarni o`z ichiga oluvchi ijtimoiy ongning aloxida bir shaklidir.

Ahloq sinfiy xususiyatga ega, chunki ahloq xis-tuyg‘u, tushuncha va printsiplar ma'lum ijtimoiy formatsiyaga xos bo`lib, ijtimoiy tuzum o`zgarishi bilan u xam o`zgaradi. Aynan o‘zbek xalqi mentalitetidagi ahloqiy xususiyatlar, eng yaxshi umuminsoniy xulq normalarini o`z ichiga olgan bo`lishi kerak [4].

Shaxsning barkamol inson bo`lishi uning ma'naviy dunyosi qanday bo`lishi bilan belgilanadi. Yaxshi ahloqiy sifat kishining eng oliy sifatidir. Shaxs ma'naviyatli rostgo'y,mehribon, va adolatli bo`lish, jaxolat va qabixlik yo`lini to`sish, insoniylik, mexr- shafqat, ma'rifat, do`stlik, mardlik, birodarlik,

mexmondo`stlik, poklik, xushxulqlik, insof, vatanparvarlik kabi insoniy fazilatlarning barchasini bola o'z oilasidan o'zlashtirib o'rgani boradi.

Shuningdek oiladagi urf-odatlar, turmush tarzi, ta'lim-tarbiya, madaniyat va an'analar hamda mehnat oilada ko'proq kattalar ya'ni ota-onalar va bobo-buvilar tomonidan amalga oshiriladigan ahloqiy xatti-harakatlar shaklida bolaning ahloqiy xususiyatlari namoyon bo'lib borishiga zamin yaratadi. Bunda bolalar kattalarni bir biriga bo'lgan munosabatlarini ko'rib kuzatish orqali urganadi.

Sharq mutafakkirlari ijodida ahloq-odob masalasi eng dolzarb masala bo'lib kelgan. Shaxs shakillanishidagi uchta omilni ilgari surgan va ular har biri to'la va to'g'ri shakillansagina shaxs barkamol va yetuk shaxs bo'lib shakillanadi degan fikirni ilgari surishgan

Qadimgi faylasuflardan Suqrot (miloddan avvalgi 469 -399) fikricha "Umuminsoniy va o'zgarmas ahloqiy tushunchalar mavjud" bo'lib, ta'limning maqsadi, uning fikriga ko'ra, narsalarning tabiatini o'rganish emas, balki o'z-o'zini bilish bo'lishi kerak deb ta'kidlaydi.

Ahloqiy ongda emotsiyonal tomon intelektual tomon bilan (tajriba va aql) chambarchas bog'lanib ketadi. Xissiy tajriba bo'lmasa, aql bo'm – bo'sh va o'z navbatida aql ishtirok etmagan xissiy tajriba ko'rdir, deb ta'kidlagan edi buyuk nemis faylasufi I.Kant.

Psixologik nuqtaiy nazardan qaralganda boladagi ahloqiy xatti-harakatlar:

- irodasi;
- o'z –o'zini anglashi;
- ichki va tashqi motiv hamda motivatsiyasi;
- emotsiyonal va individual xususiyati;
- xarakter - xususiyatlari shakllanishida favqulotda katta axamiyatga ega.

Kishi tomonidan qabul qilingan ijtimoiy normalar uning ma'naviy - ahloqiy qiyofasida xarakterli belgilar va ahloqiy sifatlarni shakllantiradi. Ahloqiy sifatlarning shakllantirish funktsiyasi inson kamolotida beqiyos axamiyat kasb etib boradi.

Shuning uchun ahloq ijtimoiy munosabatlarning boshqa turlaridan farq qilib, ahloqiy munosabatlarda xamisha va xamma joyda ahloqiy normalar yoki baholar ta'siriko'rinish turadi. Ular ahloqiy faoliyat, xulq, xatti – xaraktlarda, atrofdagi ijtimoiy borliqqa nisbatan ahloqiy ta'sir ko'rsatishda yuzaga chiqadi. Ahloqiy munosabatlarda kishilarning faoliyati va xatti – xarakatlari, ular munosabatlarining ahloqiy-amaliy ifodasi sifatida asosiy o'rinn tutadi va ahloqning vazifasi xukmron mafkura uchun xizmat qilishdan iboratdir.

**Xulosa:** Bugungi kundagi bolalarimizni ahloqi tamondan rivojlanishida uzgarib boradigan ijtimoiy borliq ta'sir ko'rsatib turadi. U o'zida jamiyatga xos bo'lgan barcha o'zgarish va ziddiyatlarni aks ettiradi. Shuning uchun xar qanday yangi ahloq jamiyat xayotida muxim rol o'ynagan xalq ommasi faoliyati natijasida qaror topadi. Shuning uchun bugungi kunda maktabgacha ta'lim tizimida ma'nab mukammal va intellektual rivojlangan shaxsni tarbiyalash bugungi kunning dolzarb muammolaridan biridir.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. [lex.uz/news/prezident-2030-yilgacha-maktabgacha-ta-lim-tizimini-rivozhlantirish-boyicha 3326-sonli qo'shma qarori](http://lex.uz/news/prezident-2030-yilgacha-maktabgacha-ta-lim-tizimini-rivozhlantirish-boyicha-3326-sonli-qo'shma-qarori).
2. Maktabgacha yoshdagি bolalar psixologiyasi S.H.Jalilova, S.M.Aripova «Faylasuflar» nashriyoti Toshkent – 2013 yil.
3. E.G'oziyev. Ontogenet psixologiyasi: nazariy eksperimental tahlil/E.G'oziyev; O'zr Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi, O'bekiston milliy universiteti.
4. – T.: Noshir, 2010. 360 b.
5. V.G.Negacheva, T.A.Markova. Bolalar bog`chasida ahloqiy tarbiya. O`qituvchi – 1990
6. Komilova, A., & Adilova, M. (2023). SHAXS EMOTSIONAL INTELLEKTINING PSIXOLOGIK VA PSIXOFIZIOLOGIK JIXATLARI. Журнал Педагогики и психологии в современном образовании, 3(2).
7. Komilova, A., & Adilova, M. (2023). AGRESSIYA–OSMIRLARDА YUZAGA KELADIGAN TAJOVUZKORLIK RIVOJLANISHIGA TASIR ETUVCHI FENOMEN SIFATIDA. Журнал Педагогики и психологии в современном образовании, 3(1).
8. Adilova, M. (2023). THE PSYCHOLOGICAL EFFECT OF TRAPS IN THE SOCIAL NETWORK ON YOUTH MIND AND SPIRITUALITY. Open Access Repository, 4(2), 500-505.
9. Muratovich, M. E., Kurbon, O., & Shamsiyevna, A. M. (2022). Some features of the formation of mathematical representations in preschoolers in the process of familiarizing them with the size and shape of objects.
10. Аракулов, Г. (2022). Pedagogik va psixologik mashg 'ulotlar maktabgacha yoshdagи bolalarda muhim fenomen sifatida. *Современные тенденции инновационного развития науки и образования в глобальном мире*, 1(3), 54-56.
11. Аракулов, Г. (2022). Факторы, влияющие на формирование агрессии у

подростков. *Современные тенденции инновационного развития науки и образования в глобальном мире*, 1(3), 106-109.

12. Yuldashev, S., & Arakulov, G. (2023). ETHNOPSYCHOLOGICAL CHARACTERISTICS OF AGGRESSIVE BEHAVIOR IN FAMILY DISPUTES. *International Journal of Contemporary Scientific and Technical Research*, (Special Issue), 81-88.